



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

№11



OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUQOBIL ENERGETIKANI JORIY ETISH DAYJEST

Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2023

Jizzax Davlat Pedagogika Universitetida elektr energiyasi sarfini kamida 30 foizga qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2022-yil 10-iyun o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining 48-son Bayoni ijrosini ta'minlash, hamda elektr energiya sarfini kamida 30 foizga tejash maqsadida JDPUda universitetining bosh o'quv binosi va 12-sonli o'quv binolarida jami 120 kVt/s quvvatga ega 222 ta quyosh paneli o'rnatildi.



Jizzax shahri, Zargarlik mahallasi, Sh.Rashidov shoh ko'chasi 4-uy manzilida joylashgan bosh o'quv bino tom qismiga 100 kVt/s quvvatli 189 dona modul o'rnatildi. Hamda Sh.Rashidov tumani "Kuyovboshi" MFY hududida joylashgan Matematika va informatika fakulteti o'quv binosi tom qismiga 20 kVt/s quvvatli 38 dona modul o'rnatildi.


Universitetning 2-sonli TTJ binosi tom qismiga 4 dona jami 800 litr hajmga ega quyosh suv isitish qurilmalari o'rnatildi. Shartnoma qiymati 1360.0 mln so'mni tashkil etadi. Mazkur qurilmalar Jizzax davlat pedagogika universiteti va "SUN HIGHTECH" MCHJ o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshirildi.



Fotoelektrik stansiyasi 2022-yil 15-oktyabr kuni o'rnatilgan bo'lib, bir oy davomida 10 ming kVt elektr energiyasi ishlab chiqaradi.

2022-yil elektr energiyasi sarfi 47.96 ming kVt ni tashkil qilgan bo'lsa, quyosh panellari orqali tejalgan energiya hissasi 21 foizni tashkil qilmoqda. Ushbu turdagi fotoelektrik stansiya deyarli texnik xizmat ko'rsatishsiz ishlaydi. O'zbekiston sharoitida bahordan kuzgacha 2-3 marotaba suv bilan yuvib, ishlab chiqarilayotgan quvvatning 10-15 % tushib ketishining oldini oladi.

Bu, albatta, kuz-qish mavsumidagi ko'rsatkich bo'lib bahor-yoz mavsumlarida ushbu ko'rsatkich kamida 30-40 % ga ko'tarilishi kutilmoqda.



Kuz-qish mavsumidagi yog'ingarchilik esa bu davrda Quyosh panellari yuzasini qo'shimcha yuvishga ehtiyoj qoldirmaydi. Invertor qo'shimcha xizmat ko'rsatish talab qilmaydi. Eng asosiysi korxonada 5 yil davomida bepul texnik xizmat ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi.

20 kVt quvvatdagi Quyosh elektr stansiyasining texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari:

- Tizimning o'rnatilgan quvvati 20 000Vt, 20kVt, 0.02MVt;
- O'rnatiladigan maydon 200 kv.m., konstruksiya turi o'zgarmaydigan quyosh moduli turi monokristall, polikristal,
- PERC quyosh moduli quvvati 350-550 Vt quyosh modullarini FIKi +20%
 - quyosh modullarini o'rnatish burchagi 330-450 o'rtacha yillik ishlab chiqaradigan elektr energiyasi prognozi 30 000 kVt soat/yil loyihaning umumiy qiymati QQS bilan 220 mln. so'm.

100 kVt quvvatdagi quyosh elektr stansiyasining texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari:

- Tizimning o'rnatilgan quvvati – 100 000Vt, 100kVt, 0.1MVt;
 - O'rnatiladigan maydon – 1000 kv.m;
- Konstruksiya turi – o'zgarmaydigan quyosh moduli turi monokristall, polikristal;
 - PERC quyosh moduli quvvati – 350-550Vt;
 - Quyosh modullarini FIKi – +20%;
 - Quyosh modullarini o'rnatish burchagi – 330-450;
- O'rtacha yillik ishlab chiqaradigan elektr energiyasi prognozi – 150 000 kVt soat/yil;
 - Loyihaning umumiy qiymati – QQS bilan 1,1 mlrd. mln. so'm;

2023-yilga rejalar :

- JDPU 1-sonli o'quv binosi, bosh o'quv binosiga 220 kVt quvvatli 1 ta quyosh paneli o'rnatiladi;
- JDPU 2-sonli o'quv binosiga 53kVt quvvatga ega 1 ta quyosh paneli o'rnatiladi;
- 1-sonli 516-o'rinli Talabalar turar joyi binosiga 100 kVt quvvatga ega 1 ta quyosh paneli o'rnatiladi;
- 2-sonli 104 o'rinli Talabalar turar joyi binosiga 53 kVt quvvatga ega 1 ta quyosh paneli o'rnatiladi.



Moliyalashtirish manbasi:

Universitetning byudjetdan tashqari mablagʻlari asosida jami: **7150000,0** soʻm mablagʻi ajratiladi.



Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filialining o'quv binosiga quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha ma'lumot

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali 2022-yilning sentyabr oyidan asosiy o'quv faoliyatini yuritib kelmoqda. Bino tomining umumiy maydoni 3172 m² bo'lib, 2023-yil yanvar oyida quvvati 35 kVt li quyosh paneli o'rnatildi.

Quyosh paneli o'rnatilgunga qadar 2022-yil sentyabr-dekabr oylarida jami sarflangan elektr-energiya miqdori talab etiladigan 51,6 ming kVt ni, o'rtacha oylik sarfi 12,9 ming kVtni tashkil etgan.





O'rtacha kunlik 430 kVt elektr energiyasi ishlatilmoqda. Hozirgi kunda o'rnatilgan quyosh paneli quyoshli kunlarda soatga 30 kVt gacha elektr energiyasi ishlab chiqarib kunlik 240 kVt, 60% gacha elektr energiyasini tejamoqda.

Joriy yilda qo'shimcha asosiy o'quv bino tom qismiga 23 kVt va talabalar turar joyi tom qismiga 20 kVt, jami 43 kVt li quyosh paneli o'rnatish rejalashtirilgan. Reja bajarilgandan so'ng jami 78 kVt li quyosh paneli filialning elektr energiyaga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplaydi.





Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2023